

RAHIMJONOV Durbek Obidjonovich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
durbekr@umail.uz

ISMOIL HAQQIY BURSAVIY VA UNING “RUHU-L-BAYON” TASAVVUFİY TAFSIRI

ИСМАИЛ ХАККИ БУРСАВИ И ЕГО СУФИЙСКИЙ ТАФСИР «РУХУ-ЛЬ-БАЙАН»

ISMAIL HAKKI BURSAVI AND HIS SUFI TAFSEER “RUHU-L-BAYAN”

Annotasiya. Ushbu maqolada Ismoil Haqqiy Bursaviy va uning “Ruhu-l-bayon” nomli tasavvufiy tafsiri ilmiy va tasavvufiy jihatdan tahlil qilingan. Asarning umumiy tuzilishi, manbalari va o'ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan. Maqolada mazkur tafsirdagi Qur'on oyatlarining zohiriy va botiniy jihatlarini ochib berilishiga alohida e'tibor qaratilgani ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tafsirdagi ishoriy yondashuv va uning tasavvuf ta'limotidagi o'rni tahlil qilingan. Asarning afzalliklari va ayrim tanqidiy jihatlari ham ko'rib chiqilgan. Natijada “Ruhu-l-bayon” asarining tafsir ilmidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ruhu-l-bayon, tafsir, tasavvuf, ishoriy tafsir, Bursaviy, Qur'on, zohir va botin, ma'rifat, irfon, islom ilmlari.

Аннотация. В данной статье представлен научный и суфийский анализ деятельности Исмашла Хакки Бурсави и его суфийского тафсира под названием «Руху-ль-байан». Подробно рассмотрены общая структура произведения, его источники и отличительные особенности. Особое внимание уделено раскрытию как внешних (захир), так и внутренних (батин) смыслов коранических аятов в данном тафсире. Также анализируется аллюзивный подход в толковании и его место в суфизме. В статье также рассматриваются достоинства данного тафсира и некоторые критические замечания в его адрес. В результате раскрывается значение работы «Руху-ль-байан» в науке тафсир.

Ключевые слова: Руху-ль-байан, тафсир, суфизм, тафсир ишари, Бурсави, Коран, захир и батин, ма'рифат, 'ирфан, исламские науки.

Annotation. This article provides a scholarly and Sufi-oriented analysis of Ismail Haqqi Bursevi and his mystical Qur'anic exegesis entitled *Rūḥ al-Bayān*. The general structure of the work, its sources, and its distinctive features are thoroughly examined. Particular attention is given to the manner in which both the outward (*ẓāhir*) and inward (*bāṭin*) meanings of Qur'anic verses are elucidated in this tafsīr. Furthermore, the study analyzes the symbolic (*ishārī*) interpretative approach employed in the work and its place within Sufi teachings. The article also considers the strengths of the tafsīr as well as certain critical perspectives. As a result, the significance of “*Rūḥ al-Bayān*” within the science of Qur'anic exegesis is clearly demonstrated.

Keywords: *Rūḥ al-Bayān*, tafsīr, Sufism, *ishārī* exegesis, Bursevi, Qur'an, *ẓāhir* and *bāṭin*, *ma'rifa*, *'irfān*, Islamic sciences.

KIRISH

Ismoil Haqqiy Abu Muhammad ibn Mustafo Bursaviy XVII-XVIII asrlarda yashagan mashhur usmonli turk olimi, mufasssir va tasavvuf namoyandasidir. U turli islom ilmlarida, ayniqsa, tafsir va tasavvuf sohalarida katta iz qoldirgan. Ismoil Haqqiy Bursaviy 1653/1063 yilda o'sha davrda Usmonlilar davlati hududidagi Aydos (hozirgi Bolgariya hududidagi Aytos) shahrida tug'ilgan. U yoshligidan ilmga qiziqib, diniy bilimlarni chuqur o'rganishga kirishadi. Keyinchalik u Bursa shahriga ko'chib o'tadi va umrining katta qismini shu yerda o'tkazadi. Shu sababli unga “Bursaviy” nisbasi berilgan. Bursaviy 1725/1137 yillar atrofida vafot etgan va Bursada dafn qilingan.

Ismoil Haqqiy Bursaviy juda sarmahsul olim bo'lib, u tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf, aqida sohalarida faol ijod qilgan. U o'zidan keyin 100 dan ortiq asarni ilmiy meros qilib qoldirdi. Bu asarlar asosan arab va turk tillarida yozilgan. Ismoil Haqqiy Bursaviy tasavvufdagi “Xalvatiya” tariqatiga mansub bo'lgan. Uning ustozlari mashhur shayx Usmon Fazl edi. Bursaviy tasavvufda nafs tarbiyasi, zikr, ma'rifat, Allohga muhabbat kabi g'oyalarni ilgari surgan. Olim o'z asarlari orqali Xalvatiya tariqatining keng yoyilishiga hissa qo'shgan.

ASOSIY QISM

Qur'oni karim tafsiri islom ilmlari ichida eng muhim va markaziy sohalaridan biri hisoblanadi.

Turli davrlarda mufasssirlar tomonidan turli uslub va yondashuvlarda ko'plab tafsir asarlari yaratilgan. Ushbu tafsirlar orasida tasavvufiy ruhda yozilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. Shunday asarlardan biri – Ismoil Haqqiy Abu Muhammad ibn Mustaf Bursaviyning (vaf. 1136/1724 y.) “Ruhu-l-bayon fi tafsiri-l-Qur'on” tafsiridir.

Bursaviyning “Ruhu-l-bayon” asari Qur'oni karimning arab tilidagi to'liq tafsiri bo'lib, tasavvufiy-ishoriy ruhda yozilgan, zohir va botin ma'nolarni birlashtirganligi bilan mashhurdir. Olimning islom olamida shuhrat qozonishiga ham uning ushbu asari sabab bo'ldi. Bursaviy shu bilan birga asosan tasavvufiy yo'nalishga mansub va axloqiy mazmunga ega bo'lgan “Kitobu-n-Natija”, “Fayzu-r-Rahmoniy”, “Sharhu-l-Masnaviy” (Jaloliddin Rumi asariga sharh), “Tafsiri risolalar” asarlarini bilan ham bilan tanilgan.

Olim o'z asarlarida so'z va tushunchalarning chuqur tarixiy va falsafiy ma'nolarini ochib berishga e'tiborni qaratgan. Xususan, “Ruhu-l-bayon” tafsirida zohiriy ilm va botiniy ma'no uyg'un tarzda berilgan. Insonning ichki ruhiy holatni hisobga olish, adabiy va tarixiy faktlardan chuqur ilmiy tahlillar asosida xulosa chiqarish, sufiy ulamolar fikrlariga tayanish bilan boshqalaridan ajralib turadi. U Qur'onni nafaqat qonun va hukmlar manbai, balki inson qalbini tarbiya qiluvchi manba sifatida talqin qiladi.

Ismoil Haqqiy Bursaviy Usmonlilar davridagi eng muhim mufasssirlardan – tasavvufiy tafsir maktabining namoyandalaridan biri bo'lgan. Uning tafsiri Markaziy Osiyo, Turkiya va Bolqon Bolqon yarim oroli davrlarida keng o'rganilgan. Uning asarlari hozirgi kunda ham musulmon olamida madrasalar va ilmiy doiralarda o'rganilishda davom etmoqda.

10 jildidan iborat katta hajmli “Ruhu-l-bayon” tafsiri yozilishida forsiy “Mavohibi Aliya” asari va boshqa ishoriy tafsirlar muhim manba bo'lgan. Tafsirda oyatlar eng avvalo lug'aviy-grammatik, fiqhiy so'ngra tasavvufiy ma'noda sharhlanadi. Bu esa tafsirni boshqa tafsirlardan ajratib turadi.

Muallif tomonidan taxminan 23 yil davomida yozilgan ushbu tafsirning juda keng va batafsil ekanligini shunda ko'rish mumkinki, birgina “Fotiha” surasining o'ziga 17 betda tafsir va sharhlar berilgan. Qur'oni karimda qariyb 50 betdan iborat “Baqara” surasining tafsiriga 450

betli tafsir yozilgan va shu bilan 464 betli birinchi jild tugallangan. Ushbu kitob islom olamida keng qiziqish bilan o'rganilganligidan bir necha bor turli nashriyotlarda chop etilgan [1].

“Ruhu-l-bayon” tafsiri keyinchalik zamonaviy Suriyalik mufasssir olim Muhammad Ali Sobuniy (1930-2021) tomonidan qisqartirib muxtasar shaklga keltirilgan. Ayrim uzun hamda zaif rivoyatlar qisqartirilib, o'qish uchun osonlashtirib berilgan ushbu muxtasar asar “Tanviru-l-azhon min tafsir Ruhi-l-bayon” (“Ruhu-l-bayon tafsiridan zehnlarni nurlantirish”) nomi bilan arab tilida chop etilgan. Bu asar asosan Suriyaning Damashq shahridagi «Doru-l-qalam» nashriyoti va Livanning Bayrut shahridagi «Dor nashri-l-kutubi-l-islomiya» nashriyotlari hamkorligida 4 jildda chop etilgan.

Bu muxtasar asar keyinchalik 13 kishilik tarjimonlar guruhi tomonidan turk tiliga o'girilib, Istanbulda “Erkam matbaasi” (“Erkam Matbaasi”) nashriyotida “Muxtasar Ruhu-l-bayon tafsiri” (“Muhtasar ‘Rûhu’l-beyân” Tefsîri”) nomi bilan sharhlangan holda 10 jildda chop etilgan [2]. Ushbu turk tilidagi kitobning 2012 yilda qayta ko'rib chiqib, sakkizinchi marotaba nashrga tayyorlangan holda chop etilganligidan unga bo'lgan talabning qay darajada katta ekanligini ko'rish mumkin.

“Ruhu-l-bayon” tafsirida oyatlarning tafsiri bilan birga, hadislar, avliyolarning hayotidan lavhalar, hikmatli so'zlar va xususan, Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy»sidan olingan irfoniylar sharhlar keltirilgan. Kitobning juda keng va batafsil tafsir ekanligini yana shundan ko'rish mumkinki, unda, masalan, birgina “Zuho” surasining tafsiriga to'qqiz bet ajratilgan [1:462-470].

Tafsirda “Zuho” surasi sharhlanar ekan, mufasssir avvalo, “zuho” so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tiborni qaratadi. Tafsirda aytilishicha, “Bu kunning quyosh ko'tarilgan vaqt bo'lib, kunning boshlanishidir... Shu vaqtda Muso (a.s.) Alloh taolo bilan so'zlashdi. Ayni shu vaqtda sehrarlar sajdaga yiqildilar. Alloh taolo aytadiki, (Fir'avn aytgan edi) “Odamlar choshgoh vaqtiga yig'ilsinlar” (Toho, 59), deb. Kunning shu vaqtining o'ziga xos sharafi borki, shu vaqtda “Zuho namozi”ni o'qish bi-l-ittifoq sunnat bo'ldi”. Shu o'rinda ushbu ibodatning to'rt mazhabdagi farqli va o'xshash jihatlari, fiqhiy jihatlari batafsil bayon etiladi. “Shuningdek, tun bilan qasam, qachonki qorong'uligi qoplab olsa”. Tafsirda tunning ushbu vaqti – shafaq yorug'ligi

ketib, tunning eng qorong‘u pallasiga kirganini aynglatishini tushuntiriladi. Bu ikki narsa – kunning eng yorug‘ vaqti va tunning eng qorong‘u vaqti bilan qasam ichilishida o‘ziga xos hikmat borligi tushuntiriladi. Bu ikki vaqt – quyoshning eng yuqoriga ko‘tarilishi va eng pastga tushishi bilan ham izohlanadi. “Saja” so‘zining ma‘nosi tinch holatga o‘tishni ham bildiradi, xuddi “saja-l-bahr” deganda dengizning tinch holatga o‘tgani tushunilganidek”.

Xuddi shu joyda “Kashfu-l-asror” tafsiridan iqtibos keltirib, fikrlar isbotlanadi. Ismoil Haqqiy Bursaviy o‘zining “Ruhul-bayon” tafsirida hanafiy mazhabining yirik olimi Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriy (vaf. 730/1330 y.) qalamiga mansub “Kashfu-l-asror” asaridan foydalangan. Bu asar mustaqil tafsir kitobi emas, balki “usulu-l-fiqh” sohasidagi eng mashhur qo‘llanmalardan biri bo‘lgan Imom Faxru-l-islom Pazdaviyning “Usul” asariga yozilgan sharhdir. Uning to‘liq nomi “Kashfu-l-asror sharhu Usuli-l-Bazdaviy” deb ataladi [6]. Bursaviy “Ruhul-bayon”da ushbu asardan istilohlarni sharhlashda, ya‘ni Qur‘on oyatlaridan hukm chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan istilohlarni (masalan: om, xos, mujmal, mubayyan va h.k.) izohlashda, Hanafiy mazhabi dalillari: Oyatlarning fiqhiy jihatlarini yoritishda, hanafiy mazhabining huquqiy asoslarini keltirishda, lug‘aviy va mantiqiy tahlil qilishda Alouddin Buxoriyning ta‘riflariga tayanadi. Shuningdek, Bursaviy ba‘zi o‘rinlarda Xoja Abdulloh Ansoriy va uning sharhlovchisi Maybudiyning irfoniy yo‘nalishdagi “Kashfu-l-asror va iddatu-l-abror” asariga ham ishoralar qilib o‘tadi, chunki bu asar “Ruhu-l-bayon”ning tasavvufiy ruhiga juda yaqindir. Ammo ilmiy va fiqhiy istilohlar kelganda, “Ruhu-l-bayon”dagi “Kashful-asror” iqtiboslari asosan Alouddin Buxoriyning yuqorida zikr etilgan sharhiga tegishli.

Aynan “Zuho” so‘zining ma‘nosini izohlashda buyuk tasavvuf namoyandasi Junayd Bag‘dodiy (816-909) ta‘rifini keltiradi: “va-z-zuho” – “shuhud” maqomidir, “va-l-layli izo sajo” – “g‘ayn” maqomidir. U haqda Payg‘ambar (s.a.v.) aytganlar (Bursaviy shu o‘rinda quyidagi hadisga ishora qiladi):

«إِنَّهُ لِيُغَاثُ عَلَى قَلْبِي، وَإِنِّي لَأَسْتَغْفِرُ اللَّهَ، فِي الْيَوْمِ مِائَةً مَرَّةً».

“Mening qalbmni (ba‘zan) g‘ayn qoplaydi va men kuniga 100 marotaba Rabbimga istig‘for aytaman”. Ya‘ni, insonga xos bo‘lgan bazi narsalar Rasululloh (s.a.v.) qalbini qoplab olishi va U zot ulardan xalos bo‘lishi uchun kuniga yuz marotaba istig‘for aytishlarini bayon qilganlar. Bu hadisdan har bir inson qalbini doimo to‘xtovsiz qoplashi mumkin bo‘lgan dunyoga muhabbat, hasad, nafrat, baxillik kabi illatlar bor va inson ulardan poklanishi uchun istig‘forni ko‘proq aytishi lozimligi xulosa qilib chiqarib beriladi tafsirda.

Xuddi shu sura boshlanishidagi oyatlar tafsirida mufasss shu g‘oyani chiqarib beradiki, Payg‘ambar (s.a.v.) uchun vahiyning nozil bo‘lishi kunning yorug‘ qismi bo‘lgan bo‘lsa, uning qorong‘u qismi ham bor, ya‘ni “tunda olam qorong‘ulikka cho‘mgani kabi Sizda ham (Ey Rasululloh) shunday qayg‘uli holat bo‘lishi, ya‘ni bazan vahiyning to‘xtalishi va boshqa qayg‘uli holatlar bo‘lishi mumkin”, deyilgandek bo‘ladi.

Xuddi shu sura tafsiri davomida nima uchun Rasulullohga (s.a.v.) vahiy 15 kunga kechikkani voqeasi keltiriladi. Unga ko‘ra, makkaliklardan bir guruhi kelib Payg‘ambar (s.a.v.)dan 3 narsa haqida – Kahf, ya‘ni g‘or egalari, Zulqarnayn qissasi va Ruh haqida so‘radilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.) “Men bu savollarning javobini sizlarga ertaga aytaman”, dedilar, ammo “in sha Alloh” (Xudo xohlasa), degan istisnoni aytmadilar. Shundan so‘ng 15 kunga vahiy kechikdi va “Kahf” surasida mazkur savollarni javobi hamda “Biror ishni ertaga qilaman deganda, albatta in sha Alloh degan istisnoni ayting”, degan ogohlantirish oyati nozil bo‘ldi. “Zuho” surasi ham o‘shanda makkalik malomat qiluvchilarning ayblashlariga qarshi o‘laroq ushbu oyatlar nozil bo‘lganligi “Ruhu-l-bayon” tafsirida batafsil yoritilgan.

Ismoil Haqqiy Bursaviy o‘z tafsirida mashhur tilshunos olim, adib va mufasss Rog‘ib Isfahoniyni (vaf 502/1108 y.) “Mufradotu alfozi-l-Qur‘on” (Qur‘on lafzlarining so‘zligi) nomli kitobidan iqtibos keltiradi. Chunki bu asar Qur‘ondagi so‘zlarning asl ma‘nosini va ulardan kelib chiqadigan majoziy ma‘nolarni tushuntirishda tengi yo‘q juda muhim manba hisoblanadi. Bursaviy “Ruhu-l-bayon”da bu olimning fikrlariga juda ko‘p tayanadi va uni “qola-r-Rog‘ib” (Rog‘ib

aytgan) yoki “kamo fi-l-mufradot” kabi iboralar bilan beradi. Bursaviyning Rog‘ib Isfahoniya tez-tez murojaat qilishining sababi shundaki, Rog‘ib al-Isfahoni so‘zlarga shunchaki lug‘aviy ta’rif bermaydi, balki ularning ma’naviy va axloqiy mohiyatini ham ochib beradi. Masalan, “Zuho” surasidagi “qolā” (قَلَا) so‘zini sharhlar ekan, mufasssir Rog‘ib Isfahoniyni “Mufradot” asaridan shunday so‘zlarni keltiradi: “Kim bu so‘zdagi (alif maqsurani) yo harfidan deb bilsa, unda “Men pishmagan xurmo va arpa unini tovada qovurdim”, degan gapga o‘xshab “qovurish” ma’nosini beradi” [4:683].

Ushbu tafsirda mufasssir Najmiddin Kubroning “Ta’vilotu-n-Najmiya” tasavvufiy tafsiridan ham ko‘p o‘rinlarda foydalangan. Masalan, “Zuho” surasidagi “mo vaddaaka rabbuka va qolā” (Rabbing seni tashlab ketmadi) jumlasini izohlashda “zohiringdan fayzi ilohiy va risolatni to‘xtatib qo‘ymadi va botiningdan valiylik fayzini to‘sisib qo‘ymadi”, degan iborani Kubroning “Ta’vilot”idan keltiradi [5].

XULOSA

Ismoil Haqqiy Bursaviy – tasavvuf va tafsir ilmida chuqur iz qoldirgan buyuk olimdir. Uning “Ruhu-l-bayon” tafsiri nafaqat ilmiy, balki ma’naviy tarbiya manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, kelajak avlodni yuksak axloq va ma’naviyatli qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi manbadir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhu-l-bayon fi tafsiri-l-Qur‘on. 10 jildli. – Bayrut: Doru-l-kutubi-l-ilmiya, 1971.
2. İsmail Hakkı Bursevi. Muhtasar “Rûhu-l-beyân” Tefsîri. – Istanbul: Erkam Matbaası, 2012.
3. Muhtasar Ruhu’L-Beyan Tefsiri 1-10 İsmail Hakkı Bursevi | PDF
4. Rog‘ib Isfahoni. Mufradot alfozi-l-Qur‘on. 4-nashr. – Damashq: Doru-l-qalam; – Bayrut: ad-Doru-sh-shomiya, 2009. 7+1008.
5. Najmiddin Kubro. At-Ta’vilotu-n-najmiya fi-t-tafsiri-l-ishoriy as-sufiy (Alouddavla Ahmad ibn Muhammad Simnoniy. Aynul hayot) // Shayx Ahmad Farid Mazidiy. – 6 jildli. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiya, 2009.
6. Xo‘jayorov A. Nasaf fiqh maktabi va bazdaviy allomalar fiqhiy merosi (IX-XII asrlar) // <https://bukhari.uz/?p=36191>. Murojaat sanasi: 26.04.2026.
7. Odinaev N. Movorounnahrda behad sevib o‘qilgan tafsir “Tafsiri Husayni” // <https://oliymahad.uz/23444>. Murojaat sanasi 26.04.2026. Murojaat sanasi: 26.04.2026.

